

**TIL O'RGANISH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOLOGIK MASHQLAR**

**Baxtiyorova Lola Otabekovna**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi globallashuv davrda ingliz tiliga bo'lgan talabning ortib borishi, uning insonlar hayotidagi ahamiyati hamda chet tillarni o'rganish jarayonida foydalaniladigan qiziqarli psixologik mashqlar haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *ingliz tili, psixologiya, psixologik tamoyillar, trening mashg'ulotlari, ko'ngilochar o'yinlar.*

Psixologiyani o'rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odam aqlini ham o'stirishga yordam beradi. Odam aqlini o'stirish, jumladan, yangi bilimlar va ko'nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal qilish qobiliyatini takomillashtirishda, o'z fikrlarini nutqda to'g'ri ifodalay bilish va boshqalarning nutqini to'g'ri tushuna bilishda ham o'z ifodasini topadi. Albatta, har bir fan bilan shug'ullanish odamni kamolga yetkazadi. Ammo psixologiya bu sohada alohida o'rin tutadi.

Chet til o'qitish metodikasi psixologiya (ruhshunoslik) bilan ikki taraflama – nutq psixologiyasi va pedagogik psixologiya bilan aloqa bog'laydi. Inson nutqi nutq fiziologiyasi (lingvofiziologiya)da va nutqning sodir bo'lishi hamda uni idrok etish psixolingvistikada ilmiy tadqiq qilinadi. Barcha tillarda nutq til materiali va nutq mexanizmlari vositasida yuzaga keladi.

...Chet til o'rganishda psixik jarayonlar – diqqat, idrok, xotira, tafakkur kabilar hisobga olinadi. Ular haqidagi ma'lumotlar psixologiya kursida o'rganilgan.

Bugungi kunda chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab va e'tibor kundan kunga ortib bormoqda, ayniqsa, ingliz tili hozirda dunyo bo'yicha global ravishda ravnaq topmoqda. XXI asr rivojlanish asri, deb bejiz aytilmagan, chunki dunyoning qaysi qismiga qaramaylik barcha yerda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning guvohiga aylanamiz.

Ko'hna zamonlardayoq ota-bobolarimiz farzandlarini hisobga o'rgatish chog'ida rangli toshlar, hayvon suyaklari kabi narsalardan foydalanilgani insoniyat tarixidan ma'lum. Qadimgi "hisob o'rgatish" vositalaridan tortib, to o'qitishning texnika vositalari ixtiro qilingunga qadar (XX asrning boshida gramplastinka chiqarilgan) ming yilliklar davomida odam bolasi ta'lim oldi, o'rgandi, tarbiyalandi. XX asr texnika inqilobi zamoni deyiladi. Chet tillarni o'rgatishda ham tovush yozish asboblari (fonograf)dan foydalanish davri boshlandi. O'tgan asr o'quv-tarbiya jarayonini texnikalashtirish bilan tarixiy ahamiyatga molik.

...Chet til muallimi o'quvchilarga ta'lim berish chog'ida o'quv vositalarini jo'yali qo'llash yo'l-yo'riqlarini chuqur bilishlari talab etiladi. Shuning uchun ham o'qitish vositalarining ta'limiy tasnifiga ehtiyoj seziladi.

Yoshi katta o'quvchilarga ingliz tilini oddiy grammatik qoidalar orqali tushuntirsa ham bo'ladi, negaki ular aytilgan narsani tezda xotirasida saqlab qoladi. Lekin yosh bolalarga bunday usulni qo'llash noo'rin, nazarimda, ularga mavzuni ko'proq qiziqarli usulda bayon qilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalarda obrazli xotira ancha yaxshi rivojlangan bo'ladi, shuning evaziga dars mashg'ulotini maksimal darajada o'yinlar va treninglarga boy tarzda o'tkazish mavzuni yanada osonroq xotirada saqlanib qolishiga yordam beradi. Albatta, bunday mashg'ulotlar bolaning yoshi hamda psixologiyasiga mos tarzda amalga oshirilishi zarur.

Hozirgi zamon psixologiyasining erishgan natijalari shuni ko'rsatadiki, bolaning tafakkurini ko'rgazmali-obrazli va so'z-mantiqiy yo'li bilan shakllantirish kerak. Bunda so'z orqali bolalarni, avvalo, ko'ra oladigan, seza oladigan buyumlar bilan tanishtirib, keyinchalik tasavvur shakllariga o'tish mumkin. Metod va usul tanlashda ham yuqoridagilarga rioya qilish zarur. Shuning uchun ham ilk va bog'cha yoshdagi sensor tarbiya aqliy tarbiyaning muhim omili hisoblanadi. Til o'rganish aqliy faoliyat bo'lganligi tufayli uning psixologik asoslari mavjud. Aqliy faoliyat ruhshunoslikda ilmiy jihatdan tekshiriladi. Shu munosabat bilan ingliz tili o'qitishning psixologik tamoyillarini tadqiq etish ehtiyoji tug'iladi. Ilmiy manbalarda ingliz tili o'qitishning ikkita psixologik tamoyillari ishlab chiqilgan. Psixologik tamoyillar: "verbalizatsiya" (o'zga til amalda faqat og'zaki nutq orqali o'rganiladi) va "korrelatsiya" (ingliz tili materialining muayyan chegarasi aniqlanadi, birinchi galda nutq malakalarini hosil qilish uchun mo'ljallangan til birliklari majmuyi shakllanadi) nomlarini olgan. Ingliz tili o'qitishning tilshunoslik asoslari birmuncha tadqiq etilganligiga qaramay, metodika fanida ingliz tili o'qitishning lingvistik tamoyillari masalasiga kam e'tibor qaratilgan.

Metodika tamoyillari mohiyatini yoritishda psixologik va lingvistik qonun-qoidalarga suyanib ish ko'rildi va quyidagi psixolingvistik tamoyillar umumlashtirildi:

1. O'quvchilarning ingliz tili o'rganish, o'zlashtirishga motivatsiyasi (ichki turtkisi) ni oshirish.
2. Mashg'ulotlarda o'quvchilarning yoshiga mos jismoniy harakatlarini rag'batlantirish.
3. O'quvchilarni ona tili va o'rganilayotgan chet tilning o'xshash jihatlaridan xabardor etish.
4. O'quvchilarning vositachi til (metatil) tajribalarini rivojlantirish.
5. O'quvchilarni ona tili va o'rganilayotgan chet tilning aloqadorligidan foydalanishga o'rgatish.
6. O'quvchilarni o'rganilayotgan ingliz tili tuzilmasi bilan umumiy tanishtirish.

7. Individual yondashish, ya'ni o'quvchilarning xos xususiyatlari (har qaysi o'quvchining tabiati, nimalarga qodirligi, qiziqishi, kim bilan do'stlashishi, nimalarga salbiy munosabatda bo'lishi) ni inobatga olib psixo-pedagogik tadbirlar olib borish.

Xorijiy til o'qituvchilari ingliz tilini o'rgatishda psixologik mashqarni to'g'ri qo'llay olishlari lozim. Xorijiy til o'quvchilarning tilni o'zlashtirishdagi hadiksirashi, chalg'ishi va charchashini yo'qotishga hamda salbiy o'zgarishlarning oldini olishga qaratilgan psixogimnastika mashg'ulotlarini ham o'z vaqtida qo'llay olishi o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Dars jarayonida bolaning bilish psixik jarayonlari – diqqati, fikrlashi, idroki, tasavvuri, xotirasi va ta'lim olishga qiziqishlari o'yinlar yordamida rivojlantiriladi.

Guruhli o'yinlardan foydalanish muloqot ko'nikmalari, bir-birini tushunish, sherikchilik, o'zaro mas'uliyatni sezish kabi xislatlarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Xorijiy tillardan ingliz tilini o'rgatishda o'qituvchi emotsional-hissiy birlikni shakllantirish bilan qisqa psixogimnastika mashqlarini tashkil etishini ko'rib chiqamiz.

Ingliz daqiqa, ya'ni English minute mashqini bajarishda uni faqat takrorlash bilan mashq qilish kerak emas. O'qituvchi "Men baxtliman", iborasini o'rgatayotganida o'quvchilar o'zlarining baxtiliklarini his qilishlariga erishishga e'tibor berishi kerak. I am happy – Men baxtliman deganda o'quvchi ikki qo'lini ozgina ko'tarib, baxtli bo'lgan kayfiyatini namoyon qilishi kerak. I am cheerful – Men tetikman deganda o'quvchilar qo'lining ikki bosh barmog'ini ko'rsatishi va I am merry – Men quvnoqman deganda o'quvchilar boshlarini ikki tomonga qimirlatishlari ularda ijobiy emotsionallikni shakllantirib boradi.

Bundan tashqari, bolalarning miya faoliyatini yanada tezroq rivojlanishi uchun "Ranglar" mashqini ham qo'llasa bo'ladi:



1. Buning uchun turli ranglardagi qog'ozlar hamda qog'ozli stakan kerak bo'ladi.
2. Rangli qog'ozlar stol ustiga ketma-ket qo'yiladi hamda ikki o'quvchi stol yonida qo'lida stakanlarni ushlagan holda qarama-qarshi turadi.
3. O'qituvchi ranglarni ingliz tilida tez-tez aytadi. Masalan, green (yashil), red (qizil), yellow (sariq) va hokazo.
4. O'quvchi qo'lidagi stakanlarni aytilgan rang ustiga qo'yadi. Bu o'yin bolalarning ingliz tilidagi so'zlarni qanchalik yaxshi bilishini tekshiribgina qolmay, ularning chaqqonligini ham oshiradi.



Bu o'yinni faqat ranglar bilan emas, balki turli hayvon nomlari, oshxona jihozlari, o'simliklar turini topishda ham qo'llasa bo'ladi. Bunday mashqlar o'quvchini psixologik jihatdan kayfiyatini ko'taradi va mavzuni yanada yaxshi o'zlashtirishiga ko'maklashadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jamolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2012. – 26-28 b.
2. Jamolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2012. – 98 b.  
<https://www.samdu.uz/uz/news/26889>
3. Tajibayev G.Sh. Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish. – T.: Namangan, 2019. – 13-14 b.
4. Shamshetova A.K, Melibayeva R.N, Usmanova X.E, Xaydarov I.O. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: Barkamol fayz media, 2018. – 30 b.
4. Худайкулова Ф.Х. Чтение литературы - важная часть воспитания личности. «Высшая школа» №18 сентябрь. 2018г. 28-31с.
5. Jamolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2012. – 98 b.